Proceedings of International Educators Conference
Hosted online from Rome, Italy.
**Date:** 25th May - 2024
ISSN: 2835-396X **Website:** econferenceseries.com

E- Conference Series
Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings
E- CONFERENCE SERIES

# OILADA BOLALARNI AXLOQIY TARBIYALASH SHAKLLARI

Raxmonova Gullola Shavkatovna
Buxoro davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi

**Annotatsiya:**
Ushbu maqolada oilada bolalarni axloqiy shakllantirish , oilaviy munosabatlar, ota-onalarning namunasi, umummadaniy saviyasi hamda ularda pedagogik madaniyatni shakllantirish omili haqida ma'lumot berilgan.

**Аннотатция:**
В данной статье представлена информация о нравственном становлении детей в семье , семейных отношениях, образце воспитания, общекультурном уровне и факторе формирования у них педагогической культуры.

**Kalit so'zlar:** oilaviy munosabat, jamiyat, oila, tarbiya, intizom, axloq, kompetensiya, faoliyat, qadriyat.

**Аннотация:**
в данной статье представлена информация о роли родителей и воспитателей в формировании видов , качеств духовно-нравственного воспитания детей дошкольного возраста, осуществляемого в семье и дошкольных образовательных организациях.

**Ключевые слова:** общество,дошкольное образование, семья, воспитание, дисциплина, нравственность, компетентность, деятельность.

**Abstract**:
This article provides information about the role of parents and educators in the formation of the types and qualities of spiritual and moral education of preschool children carried out in the family and preschool educational organizations.

**Keywords:** society, preschool education, family, upbringing, discipline, morality, competence, activity.

ISSN: 2835-396X **Website:** econferenceseries.com

E- Conference Series
Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings
E- CONFERENCE SERIES

Jamiyatning bugungi ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivoji uning a’zolari orasida ayniqsa, ularning ongida, ma’naviyatida jiddiy o‘zgarishlar va yangilanishlar bo‘layotganligini ko‘rsatib turibdi. Ayni paytda bu o‘zgarish va yangilanishlarning barchasi ham birdek ijtimoiy baholanishi qiyin .Ayniqsa,yoshlar orasida bu jarayonning ancha o‘ziga xos tarzda kechayotganligini ko‘rish mumkin. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev alohida ta’kidlaganidek, qanchalik qiyin bo‘lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo‘yicha o‘zimizga xos va ta’sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg‘unchi va zararli g‘oyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma’naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur. Bunday salbiy holatlarni bartaraf etishda barchamiz, avvalo, siz, aziz yoshlar faol bo‘lishingiz kerak. Xalqimizning ma’naviy qudrati va boqiy an’analarini asrab-avaylash va butun dunyoga tarannum etishga sizlar albatta qodirsiz.

Oliy ta’lim tizimida shaxsni tarbiyalash uzluksiz tarbiyaning muhim boshqichidir. Bu bosqich shaxsning hayotiy dunyoqarashi shakllanishi yakunlanayotgan va ongli ravishda o‘z-o‘zini tarbiyalash davri hisoblanadi.Shu sababdan oily ta’lim muassasalarida tarbiya jarayonini yo‘lga qo‘yish tizimli yondashuvga amal qilish, ta’lim va tarbiya jarayonini talablarning ilmiy-tadqiqot tayorgarligi bilan uyg’unlashgan holda amalga oshirish talab etilad. Tarbiyaviy, o‘quv va ilmiy ishlarning o‘zaro bog’liqligi va aliqadorligi bo‘lajak mutaxassisning ijtimoiy va kasbiy omilkorligini belgilovchi sifatlar, qadriyatli mo‘ljallarning bir butun yaxlitligi bilan belgilanadi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri shaxsini milliy-ma’naviy hamda umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish va yaqinlashtirish orqali yuksak ma’naviyatli shaxsni kamol toptirishda iboratdir. Ma’naviy-axloqiy tarbiya masalasi bugun har qachongidan ko‘ra ham muhimroq va amaliy-hayotiy axamiyatga ega bo‘lmoqda. Shu sababli tarbiyani ta’limning barcha bosqichlari-maktabgacha tarbiyadann boshlab oily ta’limgacha bo‘lgan bosqichlari uchun joriy etiladigan mazmuni va shakllari borasida tavsiyalarga zarurat va ehtiyoj mavjud

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaviy faoliyat deganda, ta’lim bilan yaxlit aloqadorlikda bo‘lgan maqsadli hamda tizimli faoliyat nazarda tutiladi.Bu faoliyat bo‘lajak mutaxassisdagi ijtimoiy ahamiyatli sifat va qadriyatlarni shakillantirish,har tomonlama ma’naviy, aqliy va jismoniy rivojlanish uchun munosib sharoitlarni

E- Conference Series
Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings
E- CONFERENCE SERIES

yaratish,uning o‘z ustida mustaqil ishlashi hamda o‘z shaxsiyatini ijodiy namoyon eta olishiga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonlarining kutilgan samarani berishi, tarbiyaviy ishlar asosiy maqsadlarining to‘la amalga oshishini ta’mimlash uchun quyidagi vaziyatlarni hal etish talab etiladi.

-milliy mafkura, milliy g’oya asosida yoshlarda fuqarolik, vatanparvarlik va milliy o‘z-o‘zini anglash tuyg’ularini shakllanatirish va rivojlantirish.;

-talabalarda Vatan ravnaqi,xalq farovonligi yo‘lidagi fidoiylik, ularga nisbatan befarq bo‘lmaslik tuyg’ularini shakllantirish;

-shaxshning keng dunyoqarashi va asosiy qadriyatlari tizimini shakllantirish izchilligini ta’minlash;

-yoshlarda ma’naviy- axloqiy, badiiy-estetik,ekologik shakllantirish;

-talabalarning umuminsoniy axloqiy me’yor va mezonlar,milliy qadriyatlar hamda akademik an’analar bilan yaqindan tanishgan bo‘lishi,shu asosda talablarning oily ta’limdagi hamkorlik va hamjihatlik, kasbiy burch va ma’naviy-axloqiy me’yorlarni puxta egallash;

-sog’lom turmush tarsi, tabiiy va ijtimoiy muhidga ma’suliyatli yondashuv uchun shaxsdagi ichki ma’naviy ehtiyojini shakllantirish,ularda sog’lom turmush tarziga oid qadriyatlarni egallash hamda sog’lom turmush tarziga oid tegishli ko‘nikma va malakalarni egallashlariga yordamlashish;

-ularda oilaviy munosabatlar madaniyatini shakllantirish hamda rivojlantirish .

-yoshlarning shaxs sifatida ijtimoiylashuvi,o‘z-o‘zini rivojlantirishi ,shaxsiy, shaxsiy qiziqish va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o‘z imkoniyatlarini hayotda,kasbiy faoliyatda namoyon eta olishlari uchun shart-sharoit yaratib berish.

O‘qituvchi talabini ta’lim olishi, uning kasbiy ko‘nikma va malakalarni egallashidagina emas, talabaning oily ta’lim muhitiga borishida ham asosiy ahamiyat kasb etadi.1-kurs talabalarinig oily ta’lim muassasasi sharoitlariga moslashishi eng muhim o‘quv-tarbiyaviy muammolar qatorida turadi, chunki talabalarning oily ta’lim muassasasi muhitiga kirib borishidagi tabiiy bezovtalik va hayajon ularning o‘zlashtirishlariga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Bunga o‘quv jamoasining shakllanmaganligi ham o‘zing kuchli ta’siri o‘tkazadi, bu holat ham mahsus yo‘naltirilgan ijtimoiy- psixologik ta’sirni taqazo etadi. Ayni vaqtda, murabbiylar faoliyati talabalarning hamkorlikdagi tarbiyasi dastlabki qadam ham hisoblanadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya talablarning mantiqiy olamiga,ongiga ta'sir o'tkazish, shaxsiy axloqiy tamoyillarini, uning ijyimoiy hayotdagi me'yoriy va an'analar bilan uyg'un bo'la oladigan ahloqiy sifatlar va qadriyatlarini shakillantirishni nazarda tutadi. Xalqning ma'naviy-axloqiy tajribasining talablar tomonidan o'zlashtirishi, bu tajribaning talaba shaxsida hamda uning boshqalar bilan munosabatlarida mujassamlanishi maskur yo'nalishdagi asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'la oladi. Shunga erishish lozimki, talaba milliy va umuminsoniy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bilan puxta tanishsin,ularning asl mazmun va moxiyatini ongli ravishda o'zlashtirsin, shu qadriyatlarga yaqinlik tufayli hosil bo'ladigan va huzurlarga ehtiyoj sezsin.

Tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad-har tomonlama barkamol, komil insonni tarbiyalashdir. Talim muassalarinig asosiy vazifasiesa talabaning aqliy, ma'naviy axloqiy, emotsional, mehnat vajismoniy rivojlanishiga ko'maklashish, umuminsoniy qadriyatlariga oshno bo'lishi uchun zanin hozirlash, o'z-o'zini rivojlantirish,ichki imkoniyatlari va ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilishi, muvaffaqiyatlarga erishishi uchun shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir.

**Foydalanilgan adabiyorlar ro'yxati**

1. Raxmonova G. S., Abdunabiyeva F. N. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA OILA HAMKORLIGI //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 729-734.
2. Raxmonova G. S., Norquliyeva O. O. MAKTABGACHA TARBIYA YOSHDAGI BOLA SHAXSINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 295-297.
3. Рахмонова Г. Ш. Технологии Развития Духовно-Нравственной Компетентности Студентов //Miasto Przyszłości. – 2024. – Т. 45. – С. 306-309.
4. Shavkatovna R. G. Methods of the Competence Approach in the Spiritual and Moral Education of Students //American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769). – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 535-539.

E- Conference Series
Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings
E- CONFERENCE SERIES